

INSON RESURLARINI BOSHQARISH TA'LIMOTINING RIVOJLANISHI

Musurmonova Dilsoʻz Majid qizi

Usanova Mohidil Mardon qizi

Samarqand davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrası Ijtimoiy ish yo'nalishi 21.16-guruh talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11523260>

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson resurslarini boshqarishning rivojlanishi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida inson resurslarini boshqarish ahamiyatining o'sishi, kadrlarni ishga qabul qilish va bo'shatish, shuningdek kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash sohasidagi vazifalar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiyalash, iqtisodiyot, resurslarini boshqarish, ustuvorlik, daromad, motivatsiyalash, mehnatni rag'batlantirish, tashkiliy rivojlantirish, karerani boshqarish, attestatsiya qilish.

DEVELOPMENT OF HUMAN RESOURCES MANAGEMENT THEORY

Abstract. This article describes the development of human resources management, the growing importance of human resources management in the context of modernization of the economy, the recruitment and dismissal of personnel, as well as the tasks in the field of training, upgrading and retraining of personnel.

Key words: modernization, economy, management of resources, priority, income, motivation, labor stimulation, organizational development, career management, certification.

РАЗВИТИЕ ТЕОРИИ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ

Аннотация. В данной статье описано развитие управления человеческими ресурсами, возрастающее значение управления человеческими ресурсами в условиях модернизации экономики, подбора и увольнения кадров, а также задачи в области подготовки, повышения квалификации и переподготовки кадров. персонал.

Ключевые слова: модернизация, экономика, управление ресурсами, приоритет, доход, мотивация, стимулирование труда, организационное развитие, управление карьерой, аттестация.

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish inson resurslaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Raqobat rivojlanib borayotgan hozirgi zamonaviy bozor iqtisodiyotida inson resurslaridan samarali foydalanish ahamiyati tobora oshib bormoqda. "Inson resurslarini boshqarish" fani oldida turgan

muammolar bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy fanlar va ta'limda eng dolzarb hamda yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Respublikamizda bozor munosabatlarining samarali joriy etilishi birinchi navbatda inson resurslaridan samarali foydalanishga bog'liq. Biz uchun faqat bitta ustuvorlik –inson manfaatlari ustuvorligi muhim ahamiyatga ega, mehnatga haq to'lash darajasi va aholi daromadlarini keskin oshirish, mamlakatda iste'mol bozorini rag'batlantirish siyosatini davom ettirish uchun ishonchli baza yaratilmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida turli to'siqlar bartaraf etildi, mehnat resurslarini boshqarish jarayonlari faollashdi. Inson resurslarini boshqarish izchillikda amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, u mantiqiy asoslangan, tashkilotning o'ziga xos resurslarga ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar sifatida izlash, tanlash, rivojlantirish, o'qitish, baholash, attestatsiya qilish, motivatsiyalash, mehnatni rag'batlantirish, tashkiliy rivojlantirish va karerani boshqarish kabi vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda jamiyatda, korxonalarda, tashkilotlarda, umuman olganda inson resurslari bor bo'lgan har qanday joyda ularni boshqarish va rivojlantirish doimiy tarzda yangiliklar va innovatsiyalarni talab qiladi. Aynan innovatsiyalar tashkilotlarga raqobatchilari bilan kurashda ustunlik taqdim etadi. Shuningdek, innovatsiya deganda resurslar va mahsulotlarning samaradorligi va sifatini oshirishni ta'minlaydigan yangilik tushunilishi kerak. Innovatsiya bu insonning intellektual faoliyatining yakuniy natijasi. Zamonning shiddat bilan rivojlanishi natijasida doimiy tarzda yangiliklarni, innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash va amalga tadbiriq etish zarur, chunki kundan-kunga insonning ehtiyojlari o'zgarib bormoqda. Innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydigan muhitni shakllantirish uchun korxonaga eng avvalo ajribali va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega xodimlar kerak. Bunday inson resurslarini topish, ishga yollash, korxona muhiti bilan uyg'unlashtirish, doimiy tarzda rivojlanishi uchun mos sharoit yaratib berish korxona va tashkilotlarning inson resurslarini boshqarish bilan shug'ullanuvchi menejering asosiy faoliyati hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kadrlarni boshqarish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qator normativ qonun hujjatlari qabul qilingan. Shulardan «Ta'lim to'g'risida»gi, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonunlari, «Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadr malakasini oshirish va tajriba almashuv tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Prezident Farmoni kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shiddat bilan rivojlanayotgan davrimizda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, innovatsion g'oyalarni har bir sohaga tatbiq etish, kadrlar siyosati va inson resurslarini boshqarish yo'nalishlarida yangi usullardan foydalanish korxona va tashkilotlarning yanada raqobatbardosh bo'lishi, bozor iqtisodiyotida yuqori natijalarga erishishida asosiy omil bo'ladi. iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalar, hududlar darajasida inson resurslarini boshqarish hozirgi kunning eng dolzarb muammolari yechimini topish yo'llarini "Inson resurslarini boshqarish" fanini mukammal egallash orqali erishish mumkin.

Hayotimizning barcha sohalarida inson resurslarini boshqarishda, yangicha fikrlaydigan, qiyyindamlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirish hamda ular tomonidan xodimlarni boshqarishda zamonaviy usullardan foydalanishni eng dolzarb masalalaridan biridir. Ayni paytda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy muammolarni echa oladigan, avvalo, uni teran anglaydigan, islohotlar jarayonida jonkuyarlik qila oladigan, ma'naviy-ahloqiy barkamol, qodir shaxslarni boshqaruv bo'g'inlariga ko'proq jalb etish asosiy va bosh masala hisoblanadi. Ko'rsatilgan muammolarni hal etish uchun "Inson resurslarini boshqarish" fanini o'qish va o'rganish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. PF-5843. "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. Lex.uz
2. G.Q.Abdurahmonova. Zamonaviy dunyo: Ijtimoiy tarmoqlar inson resurslarini boshqaradi.
3. Review.uz
4. Ko'chimov A., Mokhichekhra B. Historical Comparison of the Foreign Investment Climate in Small Business and Entrepreneurship in Jizzakh Region in 1991-2000 //Vital Annex: International
5. Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – No. 5. – C. 120-123.
6. Qosimova D., Ko'chimov A. Fundamentals of Investment Environment in the Process of Digital Transformation of the Economy //Vital Annex: International Journal of Novel Research in
7. Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – No. 5. – C. 55-59.